

**MOVAROUNNAHRDA MARKAZLASHGAN DAVLAT QAROR
TOPISH JARAYONIDA SIYOSIY ELITA TARKIBI NIZOMIDDIN
SHOMIYNING “ZAFARNOMA” ASARI MISOLIDA.**

**ЦЕНТРАЛИЗОВАННОЕ ГОСУДАРСТВО В МАВЕРАННАХРЕ
СОСТАВ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЭЛИТЫ В ПРОЦЕССЕ ПРИНЯТИЯ
РЕШЕНИЙ НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ НИЗАМИДДИНА ШАМИ
“ЗАФАРНОМА”.**

**THE COMPOSITION OF THE POLITICAL ELITE IN THE PROCESS
OF FINDING A CENTRALIZED STATE DECISION IN
MOVAROUNNAHR IS BASED ON THE EXAMPLE
OF NIZAMIDDIN SHAMI'S WORK “VICTORY”.**

Karimov Odilbek Raximjonovich

O'zbekiston Respublikasi

IIV Farg'ona akademik litseyi

tarix fani bosh o'qituvchisi

Tojiboyev Munavarjon Numonjonovich

O'zbekiston Respublikasi

IIV Farg'ona akademik litseyi

tarix fani bosh o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV asrning 70-yillaridagi Movarounnnahrning siyosiy vaziyatga ta'sir ko'rsatgan siyosiy qatlam vakillari, ularning ushbu jarayonlarga munosabatlari hamda ushbu voqealarda ishtirok etgan elita qatlamning kelib chiqishiga qisman e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: barlos, qabila, yasavuriy, amir Xudoydod, amir Uljoytu, Tilonchi orlot, Shayx Muhammad sulduz, siyosiy elita, orlot.

Abstract: This article partially focuses on the representatives of the political class who influenced the political situation of Movarounnahr in the 70s of the XIV century, their relationship to these processes, and the origin of the elite class that participated in these events.

Key words: Barlos, tribe, Yasavuri, Amir Khudoidad, Amir Uljoytu, Tilonchi orlot, Sheikh Muhammad sulduz, political elite, orlot.

Аннотация: Данная статья частично посвящена представителям политического класса, оказавшим влияние на политическую ситуацию Мовароуннахра в 70-е годы XIV века, их отношению к этим процессам, а также зарождению класса элиты, участвовавшего в этих событиях.

Ключевые слова: Барлос, племя, Ясавури, Амир Худоидад, Амир Улджойту, Тилончи орлот, Шейх Мухаммад сулдуз, политическая элита, орлот.

Amir Temur Movarounnahrda hokimiyatni qo‘lga kiritish arafasida amir Husayn bilan o‘rtasidagi munosabatlar yanada keskin tus ola boshlaydi. O‘sha davr muarrixlarining asarlarida bayon qilinishicha, Amir Temurning amirlaridan Muayyid mast holatda Jovurchi bekning o‘g‘lini o‘ldirib qo‘yadi. Amir Husayn esa Amir Temurdan amir Muayyidning haramini Balxga keltirilishni talab qiladi. Nizomiddin Shomiy Amir Temur amir Muso bilan kegashib, amir Husaynga qarshi yurishga qaror qilishgaligini, Amir Dovud va amir Choku kabi davlat amirlari va no‘yonlari Amir Temur bilan yakdil bo‘lishganligini, Husaynbek, Amir Hoji Sayfuddin, Abbos bahodir, O‘q Bug‘o bahodir, Shayx Ali bahodir, Davlatshoh baxshi va Elchi bahodirlar ularga bo‘ysunganligini qayd etgan [1: 78].

Shuningdek, Nizomiddin Shomiy Amir Temur qo‘shin to‘plab Balxga yurishi arafasida Shayx Muhammadni Xo‘jand tomon qochganligini, daryodan o‘tib O‘trorga yetganda uni tutib keltirish uni tutib keltirish uchun amir Hinduni yuborganligi bayon etilgan [1: 78]. 1370-yil Amir Temur amir Husyanga qarshi yurish boshlaganda Movarounnahr va Xurosonning yirik amir hamda beklari uning

qo'shiniga kelib qo'shila boshlaganligini ko'rishimiz mumkin. Nizomiddin Shomiy Amir Temur Badaxshon shohiga elchi yuborib, lashkar so'raganligi, Amir Husayn Uljoytuni Qunduzdan haydaganligi, bu davrda amir Uljoytu va Badaxshon shohi Shayx Muhammad barcha tobelari va lashkari bilan Xulm mavzeyida ekanligi, ular Amir Sohibqoronga kelib uchrashganligini bayon etgan [1: 79]. Amir Temurning amir Husaynga qarshi yurishida Suyurg'atmish o'g'lon, Muayyidbek va Husayn barloslarni oldinroq yuborgan. Shuningdek, ushbu jangda Oqtemur bahodir, Xitoy bahodir, Shayx Ali bahodir, Abbas bahodirlar hamda Amir Temurning 16 yoshli o'g'li amirzoda Umarshayxlar amir Husaynga qarshi mislisiz jasoratlar ko'rsatganliklarini o'sha davr tarixchilari asarlarida batafsil bayon etilgan. Amir Temur asosiy raqibi amir Husaynga qarshi kurashi davrida hamda hokimiyatni qo'lga kiritgan datlabki yillarda Chig'atoy ulusining ko'plab amirlari uni hukmdor sifatida tan olmaslikka va uning markazlashgan davlat tuzishga qaratilgan sa'y-harakatlarini yo'qqa chiqarishga urinib ko'rdilar. Bunday yirik amirlar qatoriga Amir Muso, Zinda Chashm va amir Kayxisrav va boshqalarni kiritish mumkin. Bu amirlar Amir Temur hokimiyatini nomigagina tan olib, imkon topilganda mustaqillikka erishishga intilganlar. Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat qaror toptirish jarayonida avvalo, ichki g'animlarga qarshi keskin kurash olib borganligini ko'rishimiz mumkin.

Amir Temur siyosiy faoliyati boshlanishi arafasida quyida nomlari zikr etilgan amirlar bir necha bor Sohibqironga qarshi fitnalarni tashkil etganligini yoki xiyonatlar qilganligini lekin har safar taqdiri ilohiy sabab ushbu xiyonat yoki fitnalar amalga oshmaganligini ko'rishimiz mumkin. E'tiborli jihati shundaki, o'sha davr muarrixlarining keltirgan ma'lumotlariga ko'ra, Amir Temur keng fellik hamda oliyjanoblik bilan o'ziga qarshi amalaga oshirilgan fitna va xiyonat ishtirokchilari bo'lgan amir yoki beklarni ko'p holatlarda avf etganligini, turli tortiq yoki hadyalar bilan ularni ko'nglini olganligini govohi bo'lishimiz mumkin. Ana shunday xiyonatkor amirlardan biri amir Muso hisoblanadi.

Amir Temur Balx shahrini egallagandan so'ng amir Muso Turkistonga jo'nab ketdi. Nizomiddin Shomiy asarida, "Amir Temur unga qarshi amir Jokuni yuborganligi, u amir Musoga yetib olib, jang qilganligini, shundan keyin, amir Muso yaylov va tog'li hududlarda sargardon yurganligi, ikkinchi marta esa amir Qarlug'oj uning ketidan yo'lga tushganligi, ularni orasini ko'rib, amir Muso ikki harami bilan Shiburg'onga Zindachashm oldiga borganligi va uni dushman qilganligi" ketirilgan [1: 85].

Shuningdek, Amir Temur markazlashgan davlat qaror toptirish jarayonida yuqorida ta'kidlanganidek, kelib chiqishi apardiylardan bo'lgan, Muhammad Hoji apardiyning o'g'li Zindachashm ham bir necha bor xiyonatkorona harakatlarni amalga oshirganligini haqida o'sha davr muarrixlari hisoblangan Nizomiddin Shomiy asarida batafsil ma'lumotlarni ketirib o'tishgan. Jumladan, Nizomiddin Shomiy esa amir Muhammadni Zindachashmning katta akasi ekanligi to'g'risida fikr bildirgan [1: 85].

Nizomiddin Shomiy amir Zimdachashmni Termiz xonzodasi bilan xiyonatini o'z asarida atroflicha bayon qilgan. Amir Temur Movarounnahrda o'z hokimiyati ancha mustahkamlab, nisbatan barqarorlikni ta'minlagandan so'ng, shimoli-sharqiy hududlarni mustahkamlash maqsadida 1371-yilda Mo'g'ulistonga o'zining birinchi yurishini boshlaydi. Nizomiddin Shomiy o'z asarida ushbu yurishlar 1371-1372-yillarda bo'lganligini, natijada O'ring Temur itoat etganligini qayd etadi [1: 88]. Ushbu yurishlar davrida Amir Temur o'zidan yordam so'rab kelgan Kepak Temurni ushbu hududlarga qo'yib, o'zi ortga qaytadi. Tez orada Kepak Temur Amir Temurga qarshi isyon ko'targanida amir Sohibqiron unga qarshi Xo'jand hokimi amir Bahrom jaloyirni, Abbas Bahodir, Shayx Ali Bahodir hamda Xitoy Bahodirlar bilan birga jo'natadi. Ushbu yurishlarda jaloyir qavmi vakillari Tezakchi jaloyir boshchiligida isyon tashkil qilishadi hamda Kepak Temur tomonga o'tib ketishga qaror qilishadi. Yakunda esa Xitoychi Bahodir va Shayx Ali Bahodirlar janglarda qahramonliklar ko'rsarishgandan so'ng, Kebek Temur ular bilan sulh tuzishga majbur bo'ladi. Yuqoridagi voqealar haqida

Nizomiddin Shomiy asarida batafsil ma'lumotlar ketirib o'tilgan. Lekin ushbu yurishlar ko'ngildagidek muvaffaqiyat keltirmaganidan keyin Amir Temur ikkinchi bor o'zi yurish qilishga qaror qiladi. Aynan shu ikkinchi yurish davrida Qarosmon mavzeyiga yetganda Amir Temurning amirlaridan amir Muso, amir Ishoq, Shayx Abulays va amir Zindachashmlar fitna tayyorlaganliklari hamda ushbu harakat fosh bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Nizomiddin Shomiy fitna ishtirokchisi Xizr Yasavuriyning o'g'lini amir Sayfuddinbek Amir Temurdan gunohini so'raganligini keltirib o'tgan [1: 89]. XIV asrning 70-yillarida Amir Temur dastlab Movarounnahrda o'zining siyosiy hokimiyatini mustahkamladi. Keyin esa, Movarounnahrning sharqiy chegaralari xavfsizligini mustahkamlash maqsadida Jeta qo'shinlariga qarshi kurashni amalga oshiradi. Ushbu hududlarda nisbatan osoyishtalikni ta'minlagach, sohibqiron endigi e'tiborini Xorazmga qaratadi. Bizga tarixdan ma'lumki, chingizxon Urganch qamalini dastlab o'g'li Chig'atoyga topshirgan. Lekin u yetarli darajada movaffaqiyatga erisha olmagach, to'ng'ich o'g'li Jo'jini ham ushbu ishga safarbar etadi. Xorazm davlati Chingizxon tomonidan egallangandan keyin, o'z mamlakati hududlarini uluslarga taqsimlashda Xorazm yerlarini ikki qismga ajratib, uning bir qismini Jo'ji ulusiga, ikkinchi qismini esa Chig'atoy ulusiga in'om etadi. Jo'ji hamda Chig'atoy uluslarida boshqaruv zaiflashib, siyosiy parokandalik hukm surgan davrlarda Xorazmni qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan Husayn So'fi o'z hokimiyati ostida birlashtirib, Chig'atoy ulusi tarkibida bo'lgan Xiva hamda Kat shaharlari ustidan nazorat o'rnatishga muvaffaq bo'ladi. Amir Temur Movarounnahrda siyosiy barqarorlikni ta'minlagandan so'ng hamda sharqiy hududlarda nisbatan osoyishtalikni qaror toptirganidan keyin, Xiva va Kat shaharlariga da'vo qilib, dastlab Xorazmga bir necha bor o'z elchilarini yuboradi.

Yuqorida ta'kidlangan voqealar sabab Amir Temur Xorazmga yurish qilishga qaror qiladi. Amir Temurning Xorazmga birinchi bor hujumini Nizomiddin Shomiy 1372-1373-yillarda amalga oshirganligini bayon qilgan [1: 90]. Nizomiddin Shomiy asarida Amir Temurning Xorazmga birinchi yurishida

Ko'cha Malik, Xumori yasovul, Mubashshir, Toxoja, Shayx Ali Bahodir, amir G'iyosiddin tarxon, Yusufshoh Xoja, amir Tumon, Kayxusrav Xatloniy, Abochi, Sori Bug'o, Jig'ortu, amir Muayyid, Xitoy Bahodir, Oq Temur, Elchi Bahodir, Shayx Muhammad kabi amir hamda beklar ishtiroki keltirib o'tilgan. Xususan, Kat shahri hujumida Ko'cha Malik, Xumori yasovul, Mubashshir, Toxoja, Shayx Ali Bahodirlar ishtirok etganligi, amir G'iyosiddin tarxon, Yusufshoh Xoja, amir Tumonilar esa Jo'yi Gurlonda Menglixoja va Keshik boshliq Xorazm qo'shinlai bilan jang qilganligi keltirilgan. Shuningdek, Jo'yi Qovun suvi yaqinida Abochi, Sori Bug'o, Jig'ortu kabi amirlar suvdan o'tib dushman bilan kurashganliklari, amir Muayyid, Xitoy Bahodir, Oq Temur, Elchi Bahodir, Shayx Muhammad ham mardonavor kurashganliklari ta'kidlangan. Elchi Bahodir esa suvdan o'ta olmay vafot etganligi bayon etilgan [1: 89-92].

Shuningdek, o'sha davr muarrixlari o'z asarlarida Amir Temurning Xorazmga dastlabki yurishi davrida Kayxusrav Xuttaloniylar sohibqironga xiyonat qilganligi haqida yetarli darajada ma'lumotlarni keltirib o'tganlar. Nizomiddin Shomiy o'z asarida yetarlicha ma'lumotlarni bayon etganlar.

Nizomiddin Shomiyning asarda "turk yo'lbars yiliga to'g'ri kelgan 776 yilda (1374-1375) Amir sohibqiron amir Dovud, Yodgor barlos va Uzun Uljoytularni podshohona hadyalar, malikona nodir buyumlar bilan Xorazmga yuborgani hamda ularga oily nasabli Xonzodani Samarqandga olib kelish topshirilganligi" haqida qayd etilgan [1: 93].

XIV asrning 70-yillarida Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat qaror toptirish jarayonida Mo'g'uliston hukmdori Qamariddinga [1: 421] qarshi amalga oshirgan yurishlari hamda Oltin O'rda taxti uchun To'xtamishxonga bergan yordamlari va bu jarayonlarda ishtirok etgan siyosiy elita vakillari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Nizomiddin Shomiy o'z asarida Amir Temurning Mo'g'uliston hukmdori Qamariddin va Oltin O'rda taxti uchun To'xtamishxonga bergan yordami haqida batafsil ma'lumot keltirilgan. Nizomiddin Shomiy o'z asarida ushbu yurish 1375-yil 26-dekabrda boshlanganligini, lekin qish qattiq

kelganligi sababli Samarqandga qaytishga majbur bo'lganligini, ikki oydan keyin 1376-yil fevralda yana qaytadan yurish tashkillaganligini bayon qilgan. Shuningdek, Nizomiddin Shomiy dastlabki yurishda Amir Temur qo'shinga Amirzoda Jahongirni mang'loy etib tayinlaganligi, Shayx Muhammad hamda Odilshohni birga jo'natganligini ta'kidlagan. Shuningdek, Shomiy asarida amir Dovud, Uch Qaro Bahodir kabi amirlar ham ishtirok etganligi keltirib o'tgan [1: 94].

Amir Temurning Xorazmga uchinchi marta yurishini Nizomiddin Shomiy 1377-yil mart oyida boshlanganligini bayon etgan. Garchi Nizomiddin Shomiy Yazdiy singari Amir Temurning Xorazmga uchinchi yurishi haqida keng ma'lumotlarni keltirib o'tgan bo'lsa-da, Yazdiy asarida uchramaydigan faktik ma'umotlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Shomiy asarida Turkon arlotning birodarini Turmish ekanligini bayon etgan [1: 97].

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, 1375-yilda Xo'jand hokimi Odilshoh jaloyir hamda bir guruh amirlarning Amir Temurga qarshi amalga oshirgan suiqasdi amalga oshmagach, 1376-yil Xo'jand hokimi Odilshoh jaloyir, Andijon dorug'asi amir Hamid hamda Sari Bug'alar Amir Temurning Xorazmga qarshi yurishda ekanligidan foydalanib, Samarqandga hujum qiladilar. Natijada esa amir sohibqiron isyonni bostirib, ularning mulklarini tortib oladi. Isyonchilar dastlab Oq O'rdaga, keyin esa Mo'g'ulistonga qochib borib, Qamariddinni Farg'onaga hujum qilishga undaydilar. Bu holat Amir Temurni yana Mo'g'ulistonga qarshi yurish qilishga majbur qiladi. Nizomiddin Shomiy Amir Temurning ushbu yurishi haqida kengroq ma'lumotlarni keltirib o'tganlar. Xususan, Nizomiddin Shomiy o'z asarida Qamariddinning Andijonga bostirib kelishiga sabab keltirilmagan bo'lsa-da, lekin Amir Temur Qamariddinga qarshi yurishlarida amir Muayyid, Xitoy Bahodir, Oq Temur Bahodir, Shayx Ali Bahodir, Uchqaro Bahodir kabi amirlar ishtirok etganligini, janglardan birida esa Po'lod Bahodir vafot etganligini qayd etgan [1: 98-99]. Nizomiddin Shomiy amirzoda Jahongirning vafotidan keyin

Amir Temur Qamariddinni izlab topish va iloji boricha uni tutish uchun amirzoda Umarshayx, Oq Bug'a va Xitoy Bahodirlarni yuborganligini ta'kidlagan.

Bizga tarixdan ma'lumki, Amir Temur davlatining shimoliy tomonida Oq O'rda davlati mavjud bo'lgan. Sohibqiron Movarounnahrda hokimiyatni egallab, Chig'atoy ulusida siyosiy barqarorlikni ta'minlagandan so'ng, Oq O'rdadagi siyosiy holatni diqqat bilan kuzatib turishga intilgan. Bu davrda esa Oq O'rdada O'rusxon nisbatan siyosiy barqarorlikni ta'minlagan edi. XIV asrning 70-yillari ikkinchi yarmida Dashti Qipchoqda siyosiy vaziyat keskinlashadi. Ana shunday vaziyatda Chingizxon naslidan bo'lgan To'xtamixon otasi To'yxo'ja O'rusxon tomonidan o'ldirilgandan keyin Amir Temurdan madad so'rab keladi. O'z davlatining shimoliy sarhadlari xavfsizligini ta'minlash maqsadida To'xtamishxonga O'rusxonga qarshi kurashda bir necha bor yordam berganligini ko'rishimiz mumkin. Nizmoniddin Shomiy Tumon Temur, Idiku Barlos shu bilan birga mang'it qabilasidan bo'lgan Idiku kabilar amir hamda beklarni keltirib o'tgan. O'rusxonga qarshi 1376-yilgi yurishda esa amirzoda Yoruq Temur, Muhammad Sultonshoh, Xitoy Bahodir, Mubashshir, Elchi Bug'o, Amir Allohdod, Oq Temur, Hindushoh, O'rung Temur kabi amirlar ishtirok etganligi, Yoruq Temur va Xitoy Bahodirlar vafot etganligi, 1378-1379-yillardagi yurishlarda esa Tumon Temur, amir O'rung Temur, G'iyosiddin Tarxon, Baxtiyorxo'ja va amir Bangilar ko'p lashkar bilan unga qo'shib yuborilganligi, keyinchalik esa O'rung Temur hamda Oq Bug'alar To'xtamishni xizmatida bo'lganligini Nizomiddin Shomiy o'z asarida keltirib o'tgan [1: 102-105].

Xulosa shuki, Amir Temur Movarounnahrda markazlashgan davlat qaror toptirish jarayonida mamlakat siyosiy hamda harbiy hayotida barlos, dulg'at, apardiy, arlot, jaloyir, uyg'ur, sulduz, qipchoq va boshqa qavm vakillarining muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rishimiz mumkin. XIV asrning 70-yillari 2-yarmidan esa o'zlarining xiyonatkorona hatti-harakatlari sabab jaloyir, sulduz va apardiy qavmlari vakillarini nufuzlari pasaya boshlaganligiga guvoh bo'lamiz. Yana shu narsa ahamiyatliki, bu davrda Amir Temurning o'z farzandlari Jahongir

Mirzo hamda Umarshayx Mirzolar ham mamlakatning siyosiy va harbiy hayotida, o‘zaro yurishlarda muhim o‘rinda turganligini ta’kidlashimiz mumkin.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma /Fors tilidan o‘giruvchi Yu. Hakimjonov, tarjimani qayta ishlab nashrga tayyorlovchi va mas’ul muharrir – A.O‘rinboyev, izohlar va lug‘atlarni tuzuvchi – H.Karomatov (jug‘rofiy nomlar izohi – O.Bo‘riyevniki), Hofizu Abruni “Zafarnoma”ga yozgan “Zayl”i (“Ilova”) ni forsiydan o‘giruvchi va izohlarini tuzuvchi – O.Bo‘riyev –T.: Fan, 2019. – 542 b.
2. Гийасаддин Али. Дневник похода Тимура в Индию. // Пер. с перс.предис. и примеч. А.А.Семенова. – М.: Вост, 1958. – 206 с.
3. Гонсалес, Руи де Клавихо. Самарқандга – Амир Темур саройига саёҳат кундалиги (1403-1406). [Техт] Гонсалес, Руи де Клавихо.; / Масъул муҳаррир: Муҳаммад Али; сўзбоши ва изоҳлар муаллифи М.Сафаров. Таржимон О.Тоғаев, -Т.: Ўзбекистон, 2010. – 264 б.
4. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома. / Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифлари Аҳмад А., Бобобеков Ҳ. –Т.: Шарқ, 1997. – 288 б.
5. Муиниддин Натанзий. Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний. / Форс тилидан таржима, сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ғулом Каримий; масъул муҳаррир – А.Ўринбоев. –Т.: Ўзбекистон, 2011. – 264 б.
6. Фасих Хавафи. Муджмал-и Фасихи / Пред. предис. примич. и указатели Д.Ю.Юсуповой. –Т.: Фан. 1980. – 346 с.